

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MUSIC

Sultanali Mannopov,
Abdulhay Karimov,
Barchinoy Qurbonova,
Juraboyeva Dilobar

Teachers of Fergana State University

Annotation: This article discusses the origins and prospects of the art of music.

Keywords: music, art, man, pleasure, melody, Farobi, composition, performance, skill

MUSIQANING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Sultonali Mannopov,
Abdulhay Karimov,
Barchinoy Qurbonova,
Jo'raboyeva Dilobar

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: mazkur maqolada musiqa san'ati vujudga kelishi va rivojlanish istiqbollari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, inson, zavq, ohang, Farobiy, kompozitsiya, ijro, mahorat

Musíqa ([yunoncha](#) μουσική — ilhom parilari san'ati) — tovush [san'atidir](#); [musiqiy asarga](#) nisbatan ham *musíqa* atamasi qo'llanishi mumkin.

Musíqa (yun. mousiche — muzalar san'-ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi mu'ayyan musiqiybadiiy obrazlardan iborat. M. insonning turli kayfiyatlari (mas, ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, M. shaxsning irodaviy sifatleri (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. M.ning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari — Imom G'azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. M.ning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqsir. M. asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra M. mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika M.ning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. M.ning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. M. shakllari har bir davrning ma'naviy ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. M.ning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Nutq, tovushli signal berish va boshqa tovushli—ma'noli jarayonlar singari, M. ham muayyan ma'lumotlarni sadolar vositasida ifodalash imkoniyatiga ega. Jumladan, tovushlarning baland-pastligi,

ingichka-yo'g'onligi, uzunqisqaligi, kuchliligi va boshqa vositalar yordamida odamning ichki holatini ifodalash imkoniyati jihatidan M. nutqqa (nutq intonatsiyalariga) o'xshaydi. Ammo, san'at turi sifatida M. fakat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar (mas, badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, M. tovushlarining muayyan musika tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutkdan farq qiladi. Har bir alohida olingan M. tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada M. tovushlarining baland-pastlik munosabatlari lad tuzilmalarida, muvaqqat nisbatlari esa — musiqiy ritm va metrda o'z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari M. madaniyati, jumladan, o'zbek musiqi folklori, an'anaviy musiqi va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi diatonika tashkil etadi. Kompozitorlik M.da (ayniqsa, 20- a.da rivoj toptan yo'nalishlarda) diatonika bilan birga xromatika ham keng o'rin olgan.

M.da asosiy badiiy vosita — kuy (melodiya)dir. M.ning ogzaki an'anadagi (monodiya) uslublari kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Ko'p ovozli kompozitorlik yo'nalishlarda garmoniya, polifoniya unsurlari ham muhim o'rin egallaydi. M. asaridagi kuy (mavzu)lar rivoji uning kompozitsiyasni (shakl)ni tashkil etadi. Musiqi shakli asar mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo'lib xizmat qiladi. M. asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo'lib, bular badiiy mazmundagi o'zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma'lum darajada ziddir. O'zaro aloqa va birlik doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar M. asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha xilma-xil ravishda o'z yechimini topadi. Turli xalqlar M. madaniyati va an'alarida M.ning barkaror va beqaror unsurlarining o'zaro munosabatlari ham o'zgachadir. Mac, an'anaviylik mezoniga asoslangan og'zaki yo'nalishdagi M. uslublari muayyan badiiy mazmun, estetik qoidalar bilan birga M. asarlari shakliga badixago'ylik xususiyatlari, nomusiqaviy (asarning ijro etish vaqti, joyi, sharoiti kabi) holatlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an'anadagi kompozitorlik san'ati asarlari esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. Shuning uchun, kompozitorlik musika mazkur shakllarni ifodalashga hamda ob'yektiv holatda saqlashda asosiy omil bo'lgan nota yozuvi muhim o'rin tutadi.

M. inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun M. asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romans va boshqalarda estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy mussha, yoshlar musikasi, maishiy musiqi, ommaviy mussha, harbiy musika, kamer musiqi, simfonik mussha, xor musikasi kabi M.turlariga birlashadi. Tari-xiy, milliy, mahalliy, shaxsiy (individual) M. uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (qarang [Avangardizm](#), [Barokko](#), [Klassitsizm](#), [Og'zaki an'anadagi musika](#), [Romantizm](#), [Sentimentalizm](#)).

Adabiyotlar Ro'yxati

1. Durdona, M. (2021, May). ABOUT DUTOR AND HIS PERFORMANCE. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).
2. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.
3. Nasritdinova, M., & Khokimova, K. (2021, October). LANGUAGE IS THE MIRROR OF THE NATION. In *Archive of Conferences* (pp. 92-94).
4. Nurmamatovich, D. S. (2022). The Role of Modern Technologies in the Learning Process. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(8), 6-9.
5. Nurullayevna, N. M., & Muhlisa, T. (2021, December). SOME PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. In *Archive of Conferences* (pp. 61-62).

6. Nurmuhammadovich, R. O., & Nurullaevna, N. M. (2021). Social And Spiritual Importance of Lessons of Musical Culture. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 50-52.
7. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
8. ZAYNIDDINOVNA, N. I. Uzbek National Dance Art and Its Historical Stages. *JournalNX*, 6(12), 191-194.
9. Najmetdinova, M., & Odinahon, S. (2021, October). HISTORY OF TRADITIONAL PERFORMING ARTS. In *Archive of Conferences* (pp. 89-91).
10. Axadjonovich, Q. A., & Mamasodiqovna, N. M. (2021, May). MARGILAN LARGE ASHULA SCHOOL. In *E-Conference Globe* (pp. 292-298).
11. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmuhammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
12. Rahmonov Ulugbek. (2021). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. *Euro-Asia Conferences*, 1(1), 131–136. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/40>
13. Рахмонов У., Эргашев А., Атабаева С. и Дилфузахон С. Ю. (2021, декабрь). РОЛЬ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В ПРОНИКНОВЕНИИ ПОП-МУЗЫКИ В УЗБЕКИСТАН. В Архиве конференций (стр. 51-53).
14. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
15. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 47-49.
16. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
17. Nomozova, D. (2020). THE IMPORTANCE OF TEACHING VOCABULARY IN STAGES. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
18. Rahmonov, U., Ergashev, A., Atabaeva, S., & Dulfuzakhon, S. Y. (2021, December). THE ROLE OF THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE PENETRATION OF POP MUSIC IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 51-53).
19. AKHROROVA, R. U. (2021). THE LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD AND THE GENDER ASPECT OF THE CONCEPT OF " AGE" IN FRENCH AND UZBEK. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 585-589.
20. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 53-56.
21. Маннопов, С., & Сулейманова, Д. К. (2019). Музыкальное наследие узбекского народа. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 82-84.
22. Mannopov, S. (2004). O'zbek xalq musiqa madaniyati. *Toshkent*, "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
23. Karimova, M., Achildiyeva, M., Ikromova, F., & Xaydarova, O. (2021). USE FROM PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS.
24. Egamberdiyeva, T. U. A., & Qurbonov, J. A. (2020). DIAGNOSTICS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL CULTURE AMONG STUDENTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 512-519.
25. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.

26. Yuldashev, F. (2021). The Study Of Socio-Psychological Problem Of Loneliness. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(12), 2580-2590.
27. Abduvositovich, Y. F., Suleymanova, D., Rakhmonov, U., Ergashev, A., Kurbanova, B., & Axmadbekova, M. (2021). The role of the great scholars of the Eastern Renaissance in the art of music in shaping the socio-spiritual thinking of young people. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2846-2850.
28. Laylo, T. (2022). FUNCTIONS OF MUSICAL CULTURE IN THE FORMATION OF A SPIRITUAL WORLD VIEW. *World Bulletin of Social Sciences*, 6, 72-77.
29. Турсунова, Л. Э. (2019). Признание о международном фольклорном фестивале «Великий шелковый путь», проведённом в городе Маргилан Ферганской области. *Проблемы современной науки и образования*, (10 (143)), 109-112.
30. Mahmudov, N. O., Norimova, S. A., & Ehsonov, D. R. (2021). So ‘ngi o ‘rta asrlarda o ‘rta osiyoda hunarmandchilik markazlarini takomillashtirish asoslari. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 692-715